

Xaitova Abadan Sultanovna

*Toshkent shahar Uchtepa tumani 109-umumiy o'rta ta'lim maktab
amaliyotchi psixologi*

***Annotasiya:** Maqolada farzand va ota-ona o'rtasidagi munosabatlar bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida tahlil qilingan. Bu munosabatlar vaqtida bola psixologiyasida turli psixik jarayonlar hamda ota-onalar va farzandlar o'rtasida turli shakldagi tushunmovchiliklar kuzatiladi. Shuningdek, bolaning oiladagi tarbiyasi yuzasidan ota-onalar uchun psixologik tavsiyalar berilgan.*

***Tayanch so'z va tushunchalar:** oila, shaxs, gipohimoyachi, ijtimoiy institutlar, psixik jarayon.*

Bugungi kunda tobora murakkablashib borayotgan jarayon insoniyatning komillik sifatlarini saqlab qolishdan iborat. Shu bilan bir qatorda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ma'rifat va madaniyat sari etaklash ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Bu masalalarning yechimini, eng avvalo, jamiyatning muqaddas makoni hisoblangan – oiladan izlash kerak. Tarixga nazar solsak, komil inson tarbiyasi avvalambor oilada boshlanganini ko'rshimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, dalil va isbotni talab qilmaydigan haqiqatdir. «Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi» Oila haqida gap ketar ekan, bu muqaddas makonni yaratuvchi ota-ona haqida gapirib o'tmaslikning iloji yo'q. Chunki oilada ota-ona farzand uchun ham murabbiy, ham komil inson tarbiyachisidir. Psixolog va ota-onalarning fikricha, bolalarda agressiya paydo bo'lib, yuz bergan jarayonga ko'z yoshi yoki jahl bilan javob qaytaradi. Atrof-muhit bilan munosabati o'zgaradi. Agressiv javob qaytarish bolaning ichki emosiylarining tashqariga chiqishiga sababchi bo'ladi. Bunday agressiya bolada 6-7 yoshdan boshlanib 8-9 yoshgacha davom etishi mumkin. Bola

ulg'aygan sari agressiya hajmi kamayib boradi. Ba'zida bola faqat agressiya bilan cheklanmaydi. Masalan, ota-ona bolasini jazolaganda uni xonasidan chiqishiga yoki turli harakatlarni bajarishiga qarshi bo'ladi. Bunday jazoga ko'nikmagan bola ongsiz holda ota onasiga qarshi chiqib, qimmatbaho narsalarni sindirishi yoki o'z kiyimlarini yirtishi mumkin. Bu jarayonda bolaning psixik rivojlanishida kamchiliklar ko'rina boshlaydi. 7 yoshdagi inqiroz paytida bola yaqinlari va do'stlaridan uzoqlashadi. Jamoaviy o'yinlarga umuman qatnashmaydi, ulardan o'zini uzoq tutadi. Agar bolaning ushbu harakatlariga vaqtida e'tibor berilmasa, bolada somatik kasalliklar vujudga kelishi mumkin. Bu sharoitda bolani so'zsiz shifokor ko'rigiga olib borish lozim bo'ladi. Kichik maktab yoshdagi bolalar psixik va ijtimoiy rivojlanishi ham alohida o'ringa ega. Birinchidan, uning ijtimoiy maqomi o'zgaradi. U maktabga qadam qo'ygan kundan boshlab, unga yangi vazifalar yuklatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy bajaradigan harakati o'yin bo'lsa, keyingi bosqichda o'yin harakati murakkab tus olib, o'qish muloqot harakatiga almashadi. Ikkinchidan, bolaning psixikasida juda katta o'zgarishlar seziladi. Bolaning o'ylash jarayoni murakkablashib, mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. 7-12 yosh oralig'ida bolalarning esda saqlash qobiliyati o'ziga xos xususiyatlardan biri bo'lib, ular bir belgini biror narsa bilan taqqoslash, esda saqlash orqali mantiqiy fikrlashni amalga oshiradilar. Mantiqiy fikrlash orqali bola kattalarning o'ylash qobiliyati bilan tenglashadi. Shu asnoda bola o'z xatti-harakati va o'z-o'ziga baho bera oladi. Yosh avlodni es-xushli, ongli, har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalash oila, qolaversa, jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasidir. Sababi, farzandning komil inson bo'lishi oiladan boshlanib, ta'lim-tarbiya maskanlarida davom etadi. «Bola hayoti – misoli oq qog'oz. Unga nima yozish ota-onaning o'z ixtiyorida» degan tushunchaga e'tibor bersak, kelajakda bolaning qanday shaxs bo'lib shakllanishi ota-onasi va oila a'zolariga bog'liq, deganidir. Chunki farzand oilada dunyoga keladi. Uning komil inson bo'lib shakllanishiga avval ota-onasi, oila a'zolari ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatdagi har bir inson uchun insoniylik fazilatlarini (halollik, poklik, imon-e'tiqod, olijanoblik va hokazolar) avvalo oilada mujassamlashadi. Shu bois oilaning jamiyatdagi o'rni,

tarbiyaviy, axloqiy ahamiyati va qadr-qimmatini anglamasdan turib, komil inson tarbiyasi haqida gapirish o'rsizdir. Sababi, oilada farzand tarbiyasida otabobolarimizning milliy an'ana va urf-odatlarini nuqtai nazaridan yondashmasak, biz oldimizga qo'ygan maqsadga erishishimiz mushkul kechadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida ta'kidlanganidek: «Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rnini va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar

– yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi»². Hozirgi kunda farzand bilan ota-ona o'rtasidagi munosabatlar dolzarb muammolardan biridir, chunki ota-ona farzand tarbiyasida turli muammoli vaziyatlarga duch keladi. Vaholanki, bunday vaziyatlarda bolani sabr toqat bilan tushunishga xarakat qilinsa, ta'lim-tarbiya jarayoni samarali bo'ladi. Bugungi kunda ko'pchilik ota-onalar ongida ko'p hollarda ular qo'ygan talablarni farzandlari so'zsiz bajarsa bo'ldi, degan tushuncha shakllangan. Ayrim hollarda bolaga kuch ishlatib, qo'rqitish yo'li bilan tarbiya berish holatlarini ham uchratamiz. Bu jarayon bolani turli psixik inqirozlarga olib kelishi mumkin. Inson bolalik paytida olgan psixik zarbani butun umri davomida unutmasligini esda tutishimiz kerak. Eng asosiysi, maktab yoshidagi bolaning tarbiyasiga bee'tibor bo'lmang. Dars tayyorlab o'tirgan bolaning tepasida turib, har bir kamchiligi uchun tanbeh berib yoki «qo'l ishlatib» uning darsga bo'lgan qiziqishini susaytirmang. Bu keyinchalik bolani yolg'on ishlatishga majbur qiladi. Bunday hollarda farzandingizni jazolash o'rniga unga to'g'ri talab qo'yishning samarali yo'llarini o'rganing, ya'ni bolaning biron-bir erishgan yutuqlarini aytib, unga berilgan

topshiriqni to'g'ri yoki noto'g'ri bajarayotganini nazorat qiling. O'ziga yuklatilgan vazifani to'liq bajarishiga ishonch bildirib, topshiriqni ma'lum bir paytda tekshirishingizni ayting. Shundagina farzandingiz sizning ishonchingizni oqlashga harakat qiladi. Faqat maqtash kerak ekan, deb o'rinsiz maqtamang. Bu holat uni manmanlik, o'zboshimchalik va mensimaslikka o'rgatadi. Kichik maktab yoshdagi bolalarning harakati tezlik bilan o'zgarib, ularni tarbiyalashda qiyinchiliklarga duch kelamiz. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab qolmasdan, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari boyib boradi, real hayot mazmunini chuqurroq anglash, ya'ni farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini ko'rish holati yuz beradi. Olimlarning kuzatuvlariga ko'ra, bugungi kunda ishdan toliqib kelgan ota-ona bolasining tarbiyasiga 10-15 daqiqa vaqt ajratar ekan. Bu sanoqli daqiqalarning aksar qismi kundalikni tekshirish, kamchiliklarni ko'rsatish va tanqid ostiga olishga ajratilishi aniqlangan. Oilada tarbiyada yo'l qo'yiladigan kamchiliklar:

- ichkilikka ruju qo'ygan ota-ona farzandiga «gipohimoyachi» bo'lib tarbiya beradi. Ular farzandlaridan hech narsa talab qila olmaydi;

- ba'zi bir ota-onalar haddan tashqari qattiqqo'l bo'lsak, farzandimizning tarbiyasi yaxshi bo'ladi, deb hisoblaydi.

Aksincha, bunaqa vaziyatlarda bolalar tortinchoq, o'ziga nisbatan ishonchsiz, yolg'on gapiradigan bo'ladi. Bola tarbiyasida quyidagi qoidalarga amal qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- agar siz ogohlantirish bermoqchi bo'lsangiz, avvalambor farzandingizning yaxshi tomonlarini sanab o'ring;

- farzandingizning kamchiligini birdaniga yuziga solmasdan, yotig'i bilan tushuntiring;

- o'ziga buyruq berilishini hech kim yoqtirmaydi. Shuning uchun bevosita buyruq berishdan ko'ra, savol berib, pand-nasixat yo'li bilan berilgan topshiriqni bajartirganingiz ma'qul;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- farzandingizga o'z obro'sini saqlab qolishiga imkoniyat bering;
- insonlar haqida yaxshi fikrda bo'ling, shunda farzandingiz ularga o'xshashga harakat qiladi. Insonga har tomonlama tarbiya berish oila va ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasidir. Sababi, mustaqil yurtimizning ertangi kuni bugun farzandlarimizning qanday ta'lim-tarbiya olishiga bog'liq.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini doimo yodda tutushimiz lozim: «Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi»¹. Shaxsning shakllanishi uzluksiz va murrakkab jarayondir. Bu jarayonda bolaga tabiatdan berilgan tug'ma qobiliyatlar, jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat, oiladagi munosabatlar kabi asosiy kuchlarning o'zaro bog'liqligi ongli shaxsning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Har bir bolaga shaxs sifatida qarab, uning o'ziga xos ongi, erki, qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ota-onalar o'qituvchi bilan hamkorlikda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir:

- ilg'or pedagogik-psixologik tajribalar, samarali usullardan foydalangan holda xalqimizning madaniyati, urf-odatlarini negizida kichik maktab yoshidagi bolada milliy ong, insoniylik fazilatlarini shakllantirish;
- mutaxassislik fanlarining tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiruvchi maxsus va fakultativ fanlarni kiritish;
- bolalarning bilim, ilmga bo'lgan qiziqishlarini orttirish; ularning aqliy qobiliyati, dunyoqarashini shakllantirish, jamiyat talabiga mos shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish;
- iqtidorli bolalarni aniqlash va ular qobiliyatining rivojlanishiga sharoit

yaratish;

- tabiat va inson chambarchas ekanligini xis qiladigan, tabiatni muhofaza qila oladigan shaxsni tarbiyalash;

- milliy madaniyat asosida estetik tarbiya berishga o'rgatish;

- milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'rganish va asrashni tarbiyalash;

- yoshlar tarbiyasida «ozodlik», «tenglik», «demokratiya» kabi tushunchalarning mohiyatini teran tushunish va mamlakat ramzlariga hurmat ko'rsatish. Oiladagi ta'lim- tarbiyaning maqsadi – bolaning yoshi, xususiyatlari, psixik jarayonlarini hisobga olgan holda munosib tarbiya berishdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- oilada bolaning rivojlanishi, sog'ligiga g'amxo'rlik ko'rsatish, tozalikka rioya qilish;

- mehnat va mehnatsevarlikka o'rgatish. Bolaning kundalik hayotini mazmunli tashkil etish va o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmasini shakllantirish;

- oila a'zolarini o'zaro do'stona munosabatda bo'lishga, ota-ona, qarindoshlar, keksalarni hurmat qilishga o'rgatish;

- adabiyot, madaniyat, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish;

- intizomli, mas'uliyatli va ziyrak bo'lishga o'rgatish;

- o'z-o'zini tarbiyalash va ijodkorlikka yo'naltirish.

Kichik maktab yoshidagi bolalar tez o'sa boshlaydi. Shuning uchun bolalar kamida 8 soat uxlashi tavsiya etiladi; – bolangizning xulqi yoki o'qishidagi barcha o'zgarishlari haqida o'qituvchiga xabar berib turing; – bolangiz aytganingizni qilmaydigan bo'lsa, psixolog yoki shifokor bilan maslahatlashing¹. Jamiyatda oilaning asosiy vazifasi jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnatga tayyor shaxsni shakllantirib berishdan iborat. Shuningdek, bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan intilish, ijtimoiy faollikning ortishida ota-onalarning samarali ishtirok etishi hal qiluvchi omil bo'lib, bu oila tarbiyasida bolaning komil inson bo'lib shakllanishida alohida o'rin

tutadi. Xulosa shuki, ota-onaning bergan bugungi tarbiyasi farzandining ertangi kelajagi uchun poydevor vazifasini o'taydi. Shuning uchun oiladagi farzand tarbiyasi ota-ona tomonidan to'g'ri yo'naltirilgan bo'lsa, unda uning katta hayotga dadil qadam qo'yishiga, mustaqil fikr yuritishiga zamin yaratilgan bo'ladi. Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayanib, oilada bola tarbiyasidagi ob'ektiv va su'bektiv omillarning mavjudligini inobatga olgan holda quyidagi takliflarni beramiz. Ota-ona bola tarbiyasida: – sabr-toqatli; – mehr- muhabbatli; – intizomli va mas'uliyatli bo'lishi; – farzandining ham ruhan, ham aqlan, ham jismonan sog'lom bo'lishiga imkoniyat yaratishi; – har bir farzandini shaxs sifatida ko'rishi lozim. Farzand tarbiyasida psixologik tomondan beriladigan quyidagi tavsiyalarga amal qiling. Birinchidan, ertalab farzandingizni mehr bilan uyg'oting. Sizning muloyim ovozingiz va yuzingizdagi tabassum farzandingizning uyqusini o'chirishi lozim. Ikkinchidan, agar farzandingiz darsga kechikadigan bo'lsa, uni «tez bo'l», «chaqqon qimirla» deb shoshiltirmang. Bunday hollarda farzandingizni ertaroq uyg'otmaganingiz uchun o'zingizni aybdorman deb biling. Uchinchidan, «tarbiyasiz bo'lma», «bugun ikki olsang, ko'rasan» degan ogohlantirishlarni ko'p marotaba aytmang. Aksincha, unga ishonch bildirib, yaxshi baho olib kelishiga tilakdosh bo'ling. Shu o'rnida aytish joizki, ba'zi ota-onalar «bolam faqat yaxshi baho olishi kerak», deb o'ylaydi. Buni eshitgan bola ota-onasining jazosidan qo'rqib, yomon baho qo'yilgan kundalik daftarining sahifasini yirtishga, bahoni tuzatishga yoki boshqa yo'l orqali aldashga urinadi. Shuning uchun har bir ota-ona baho farzandining bilim olishida muhim, ammo asosiy masala emas ekanligini bilishlari lozim. Shuni esdan chiqarmaslik kerak: «baho qadrli emas, bola qadrli». To'rtinchidan, farzandingizni maktabga och holda jo'natmang. Beshinchidan, farzandingiz maktabdan kelishi bilan «Bugun qanday baho olding?» deb savolga tutmang. Oltinchidan, agar farzandingizning biror narsadan jahli chiqsa, indamang. Hovuridan tushgandan keyin o'zi nima bo'lganini aytib beradi. Ettinchidan, farzandingizning tartibsizligi uchun o'qituvchi sizni maktabga chaqirsa, o'qituvchi bilan bo'lgan suhbatda farzandingiz qatnashmagani ma'qul. Uyda

farzandingizning ham fikrini eshitib, xatolarini tushuntiring. Sakkizinchidan, farzandingiz maktabdan kelishi bilan unga dars tayyorlashi kerakligini aytmang. Farzandingiz 2-3 soat dam olgani ma'qul. To'qqizinchidan, dars tayyorlayotgan bolaning tepasida turib, tanbeh berib, qo'pol gaplar ishlatmang. Undan ko'ra dars tayyorlashida yordam bering. O'ninchidan, farzandingizga har kuni kamida 20-30 daqiqa vaqt ajrating, u bilan yaqindan suhbatlashing. Shuningdek: – bolangizning fikrini qiziqib tinglang, uy ishini bajarganida rag'batlantiring; – bolangizning qiziquvchanligini rivojlantirishda yordam ko'rsating. Bunday yoshda bolalar o'zida paydo bo'lgan qiziqishini ayta boshlaydi, e'tiborli bo'ling; – bolangizning kun tartibi bo'lishi, unda uy vazifalariga alohida vaqt ajratish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. / O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Mamlakat Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. //«Xalqso'zi» gazetasi, 2016 yil, 8 dekabr.
2. Karimov H.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. / A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
4. Haytov A. Sinf rahbari. – T.: «Yangi asr avlodi», 2006. 5. Hasanboev J., Hasanboeva O. va boshqalar. Pedagogika. – T.: «Fan», 2006.